

IQTISODIYOT FANINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Sodiqova N.T.

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

Yuldasheva Hulkar

Osiyo xalqaro universiteti 1-IQ-22 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15044113>

Annotatsiya. Maqlada iqtisodiyot fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Iqtisodiyot nima? U nimaga kerak? va shu bilan bir qatorda mamlakatning rivojlanishiga iqtisodiyot qay darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi kabi savollarga javob topib olamiz.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, umumiy iqtisodiy qonunlar, xususiy qonunlar, maxsus qonunlar, ehtiyoj, bozor iqtisodiyoti, an'anaviy iqtisodiyot, aralash iqtisodiyot.

Har bir inson har kuni turli iqtisodiy muammolarga duch keladi: oziq-ovqat, uy-joyga bo'lgan ehtiyojini qanday qondirish, kiyim-kechak, ta'lif, dam olish va hokazo, qanday turdag'i iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish, u yoki bu narsani sotib olish yoki olmaslik, ma'lum bir mahsulotni sotib olish yoki kerakli xizmatni ko'rsatish uchun yetarli daromad bormi va hokazo. Bularni to'g'ri tahlil qilish uchun esa iqtisodiyotga yuzlanamiz.

Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib kishilarning yashashi, kamol topishi uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qaratilgan, bir-biri bilan bog'liqlikda amal qiladigan turli-tuman faoliyatlarni yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim bir so'z bilan **iqtisodiyot** deb ataladi.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fani mamlakatimizda yashayotgan hamma kishilarning daromadlari, ularning turmush darajasi faqat milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga bog'liqligini, shu yurtda mehnat qilayotgan kishilarning ijodiy mehnati bilan vujudga kelgan milliy mahsulotning ko'payishi, uning to'g'ri taqsimlanishi va foydalilishi, milliy pul barqarorligi bilan bog'liqligini ham o'rgatadi va milliy istiqlol mafkurasining odamlar ongida shakllanishiga, ularning intellektual kamolotga erishuvilda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo'jaligi doirasida ro'y beradi.

Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida iqtisodiyot – uy xo'jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksikonida «iqtisod» tejamkorlik ma'nosida tushunilgan, chunki islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e'tibor berilgan. Lekin, hozirgi davrda iqtisodiyot tushunchasi faqat uy, individual xo'jalik yuritish yoki tejamkorlik ma'nosi bilan cheklanmaydi.

Balki iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab iqtisodiy tizimni anglatadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari

Iqtisodiyotning birlamchi tarmog‘i qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, o‘rmon xo‘jaligi, ovchilik va qazib oluvchi sanoatni birlashtiradi.

Iqtisodiyotning ikkilamchi tarmog‘i — ishlab chiqarish va qurilish .

Iqtisodiyotning uchinchi sektori xizmat ko‘rsatish sohasi deb ataladi. Ko‘pincha iqtisodiyotning uchinchi sektoridan ajratilgan

Iqtisodiyotning to‘rlamchi sektori — axborot texnologiyalari, ta’lim, tadqiqot, global marketing, bank — moliya xizmatlari va ishlab chiqarish bilan emas, balki uni rejalashtirish va tashkil etish bilan bog‘liq boshqa xizmatlar.

Mulkchilik shakliga ko‘ra davlat va xususiy sektorlar ajratiladi.

Iqtisodiy faoliyatning o‘ziga xos turlariga qarab iqtisodiyotning real sektori, noishlab chiqarish, moliyaviy sektorlarga bo‘lingan.

Iqtisodiyot shakllari

Iqtisodiyotning quyidagi asosiy shakllari mavjud :

- bozor
- an‘anaviy
- aralash

Iqtisodiy o‘sish

Iqtisodiy o‘sish deganda xalq xo‘jaligida real ishlab chiqarishning ma’lum vaqt oralig‘ida (oy, chorak, yil) o‘sishi tushuniladi. Iqtisodiy rivojlanishdan farqli o‘larоq, iqtisodiy o‘sish miqdoriy ko‘rsatkich sanaladi. Haqiqiy ishlab chiqarish odatda real (ya’ni inflyatsiya omillaridan tozalangan) yalpi ichki mahsulot (YaIM), kamroq — real yalpi milliy mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM) yoki milliy daromad (MD) tushuniladi. Iqtisodiy o‘sish umumiylar farovonlikning o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq: umr ko‘rish davomiyligining oshishi, tibbiy yordam sifati, ta’lim darajasi, ish kunining davomiyligining qisqarishi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv omillari bilan farqlanadi

Siyosiy iqtisod grekcha so‘zdan olingan bo‘lib «politikos» - ijtimoiy, «oykos» - uy, uy xo‘jaligi, «nomos» - qonun degani.

Ya’ni uy yoki ijtimoiy xo‘jalik yuritish qonunlari ma’nosini beradi. 1575-1621 yillarda yashab, ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten birinchi marta 1615 yilda «Siyosiy iqtisod traktati» nomli kichik ilmiy asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi. Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, siyosiy iqtisod keng ma’noda moddiy va boshqa hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni boshqaruvchi qonunlar to‘g‘risidagi fandir, deb yozgan edilar.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani iqtisodiy qonunlarni quyidagi guruhlarga turkumlaydi:

1. Umumiyl iqtisodiy qonunlar – kishilik jamiyatni rivojlanishining barcha bosqichlarida amal qiladi. Masalan, vaqtini tejash qonuni, ehtiyojlarning tez o‘sib borish qonuni, takror ishlab chiqarish qonuni, ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar xususiyati va rivojlanish darajasi mos kelish qonuni va boshqalar.

2. Xususiy yoki davriy iqtisodiy qonunlar – insoniyat jamiyatni taraqqiyotining bir necha bosqichlarida amal qiladi. Masalan, talab qonuni, taklif qonuni va qiymat qonuni. Bu qonunlar tovar-pul munosabatlari mavjud bo‘lgan bir necha bosqichlarda amal qiladi.

3. Maxsus, o‘ziga xos iqtisodiy qonunlar – alohida olingan iqtisodiy tizim sharoitida amal qiladi. Masalan, qo‘srimcha qiymat qonuni

Iqtisodiyot nazariyasi fani shakllanishi jarayonida bir qancha g‘oyaviy oqimlar, maktablar vujudga kelgan. Ular jamiyat boyligining manbai nima, u qayerda va qanday qilib ko‘payadi, degan savollarga javob topishga urinishgan. Masalan merkantalizm, fiziokratlar, marjinalizm, keynschilik shular jumlasidandir.

Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasi –ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi hamda ular o‘rtasidagi ziddiyatning hal qilinishidir.

Insonning yashashi va kamol topishi, umuman insoniyatning rivojlanishi uchun kerak bo‘lgan hayotiy vositalarga bo‘lgan zarurati iqtisodiyot nazariyasi fanida ehtiyoj deb ataladi.

Iqtisodiyot fanining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini juda katta va beqiyosdir. Iqtisodiyot deganda kishilarning o‘z hayotiy ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. Bu siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy faoliyatdan o‘zining asosiy bo‘lishi, boshqa faoliyat uchun moddiy shart-sharoit yaratib berishi bilan ajralib turadi. Iqtisodiyot kishilarning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan noz-ne’matlarni yaratadi, ularni kishilar iste’moliga yetkazib beradi. Demak, u hayot kechirishni kafolatlaydi.

Qayerda iqtisodiyot rivoj topgan bo‘lsa, shu yerda kishilar rohat-farog’atda yashaydi va aksincha, qayerda iqtisodiyot qoloq bo‘lsa, shu yerda kishilarning qorni to‘ymaydi, usti but bo‘lmaydi, ular doimiy muhtojlikda zo‘rma-zo‘raki kun o’tkazadilar.

REFERENCES

1. Qudratova, G. M. (2025). THE EVALUATION OF UNIVERSITY COMPETITIVENESS: A REVIEW OF METHODOLOGIES. *SHOKH LIBRARY*.
2. Azimov, B. F., Maksudovich, A. Z., & Qudratova, G. M. (2025). THE IMPORTANCE OF INNOVATION IN ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION UNIVERSITIES. *SHOKH LIBRARY*.
3. Sodiqova, N. (2025). METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' TECHNICAL THINKING IN ECONOMICS CLASSES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 885-891.
4. Islomova, M., & Sodiqova, N. (2025). ILM-FAN VA TA'LIMDAGI INNOVATION RIVOJLANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 300-307.
5. Bahodirovich, X. B. (2025). XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB YURITISH SIYOSATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(6), 210-215.
6. Bahodirovich, X. B. (2025). BUXGALTERIYA HISOBINING O'RGANISH USULLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(5), 257-262.
7. Ёкубов, А. Б., & Алимова, Ш. А. (2024). МАКРОЭКОНОМИКА: ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРИИ И СОВРЕМЕННОЙ ПРАКТИКИ.
8. Abidovna, A. S. (2025). INVESTMENT PROJECTS: ADVANCED MANAGEMENT AND EVALUATION. *SHOKH LIBRARY*.
9. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSИYANING AHAMIYATI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 112-121.
10. Hakimovich, T. M. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG 'BATLANTIRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIYAVIY VOSITALAR TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 141-150.
11. Ibodulloevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.

12. EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(6), 58-69.
13. Azimov, B. F., & Yodgorova, Z. Y. (2025). METHODS OF STUDYING THE STATE OF COMPETITION IN THE EDUCATIONAL SERVICES MARKET. *SHOKH LIBRARY*.
14. Azimov, B. F. (2025). INNOVATSİYALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASH XİZMATLARI: İSPANIYA, POLSHA VA BOLGARIYA TAJRIBALARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(4), 12-23.
15. Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.
16. Қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.“. Экономика и туризм” международный научно-инновационной журнал, 6, 14.
17. Shadiyev, A. X. (2025). DEVELOPMENT OF THE CURRICULUM FOR ECONOMIC DISCIPLINES IN PRIVATE UNIVERSITIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 389-396.
18. Shadiyev, A. X. (2025). METHODS OF TEACHING THE “ECONOMIC THEORY”. *SHOKH LIBRARY*.
19. Zaripova, G., & Naimova, N. (2025). INFLYATSIYA VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 371-378.
20. Akbarovna, N. N. (2025). PROBLEMS OF INCREASING INVESTMENT ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION. *SHOKH LIBRARY*.
21. Supiyevna, B. M. (2025). G'AZNACHILIK-DAVLAT MOLIYASINING ENG MUHIM BO'LAGI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(5), 117-123.
22. Supiyevna, B. M. (2025). BUDGETING IN THE PUBLIC SECTOR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(6), 90-95.
23. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296-300.
24. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
25. Tagayeva, R., & Bobojonova, M. J. (2025). BYUDJET, UNING SHAKLLANISHI VA TAQSIMLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(2), 387-393.

26. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO 'RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(4), 120-128.
27. Жумаева, З. К. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ИНДУСТРИЙ КАК ФАКТОР РОСТА НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОБЗОР ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.
28. Жумаева, З. К. (2024). Инвестиционная Активность Как Основной Элемент Организационно-Экономического Механизма Маркетинга Территории. *Miasto Przyszlosci*, 55, 1411-1417.
29. Ibragimov, A. (2025). PROSPECTIVE WAYS OF ATTRACTING FOREIGN INVESTMENT TO THE NATIONAL ECONOMY. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 137-143.
30. Qahhorova, J., & Ibragimov, A. (2025). XORIJIY INVESTITSIYALAR AHAMIYATI, OMILLARI VA ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(2), 283-291.
31. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). ИННОВАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРОБЛЕМЫ. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 120-126.
32. Алимова, Ш. А., & Джураева, М. С. (2025). СТРАТЕГИЧЕСКОЕ УПРАВЛЕНИЕ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 82-89.
33. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО развития ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 335-340.
34. Baxtiyorova, J., & Djurayeva, M. S. (2025). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA RAQOBATNING ROLI. *Modern Science and Research*, 4(2), 477-485.